

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI PhD.03/27.09.2024.Ped.72.10. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

QORABOYEV FAZLIDDIN FAXRIDDINOVICH

**OG‘IR ATLETIKACHILARNING JISMONIY TAYYORGARLIGINI
OSHIRISHDA UMUMIY VA MAXSUS TAYYORGARLIK
VOSITALARIDAN FOYDALANISH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy
tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Qoraboyev Fazliddin Faxriddinovich

Og‘ir atletikachilarning jismoniy tayyorgarligini oshirishda umumiy va maxsus tayyorgarlik vositalaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish.....3

Карабоев Фазлиддин Фахриддинович

Совершенствование методики использования средств общей и специальной подготовки для повышения физической подготовленности тяжелоатлетов...25

Koraboyev Fazliddin Fakhriddinovich

Improving the methodology of using general and special training tools to enhance the physical fitness of weightlifters49

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....54

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI PhD.03/27.09.2024.Ped.72.10. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

QORABOYEV FAZLIDDIN FAXRIDDINOVICH

**OG‘IR ATLETIKACHILARNING JISMONIY TAYYORGARLIGINI
OSHIRISHDA UMUMIY VA MAXSUS TAYYORGARLIK
VOSITALARIDAN FOYDALANISH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy
tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro-2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PHD/Ped9630 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida www.buxdu.uz hamda “ZiyoNET” Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Sattorov Anvar Ergashovich
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor

Rasmiy opponentlar:

Tajiboyev Soyib Samijanovich
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Arziqulov Muqum O‘ralovich
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
professor

Yetakchi tashkilot:

Urganch davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.09.2024.Ped.72.10 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “18” 10 soat 9⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (0365) 221-29-14; faks: (0365) 221-27-57; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (734 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (0365) 221-29-14.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “6” 10 da tarqatildi.

(2025-yil “18” 10 dagi 004-raqamli reyestr bayonnomasi)



M.J.Abdullayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

A.E.Sattorov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
koubi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa
doktori (PhD), professor

R.S.Shukurov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, pedagogika
fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda og‘ir atletika sport turi bo‘yicha sportchilar tayyorlash tizimini takomillashtirish va modernizatsiya qilish, zamonaviy bilim, ko‘nikma va malakaga ega mutaxassislarni tayyorlash borasida juda ko‘plab ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Dunyoning og‘ir atletika sport turi rivojlangan Xitoy, Shimoliy Korea, Eron, AQSH, Gruziya, Armaniston, Bolgariya kabi davlatlarida kuchli og‘ir atletikachilarni tayyorlash, mashg‘ulotlar jarayoniga ilg‘or xorijiy tajribalar, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilish sababli xalqaro sport maydonida raqobatbardosh sportchilar yetishib chiqmoqda. Dunyoning yetakchi mamlakatlarida og‘ir atletikachilarning jismoniy tayyorgarligini oshirishda umumiy va maxsus tayyorgarlik vositalaridan foydalanish metodikasini takomillashtirishga doir turli xil dasturlar ishlab chiqish va uni aniq tizimli boshqarishga katta e‘tibor qaratilayotgan bo‘lsada, aynan o‘quv mashg‘ulot bosqichidagi og‘ir atletikachilarda raqobatning kuchayishi ushbu sport turida musobaqa faoliyati natijalarini yuqori ilmiy-amaliy tahlil qilish va jismoniy sifatlarni rivojlantirish hamda samaradorligini oshirish yo‘llarini izlab topish talabini yuzaga keltirmoqda.

Jahonda barcha sport turlarida bo‘lgani kabi og‘ir atletika sport turida ham yuqori natijaga erishish uchun o‘smir sportchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, ularning mashg‘ulot jarayonida umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik vositalarini qo‘llash orqali yuqori sport natijasiga erishish maqsad qilinmoqda. Bugungi kunda jahonda og‘ir atletika natijalarining kun sayin o‘sishi, vazn toifalarining yangilanib turishi yetakchi mamlakat olimlari tomonidan ilm-fan va texnologiyalarini og‘ir atletika sport turiga joriy etish, integratsiya qilish orqali sport turi nufuzini xalqaro maydonda saqlab qolish maqsadida bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ko‘plab xalqaro musobaqalarda olib borilgan kuzatuvlar va statistik tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, jismoniy tayyorgarlik bilan bog‘liq muammolarni yechimi sifatida o‘smir og‘ir atletikachilarda umumiy va maxsus tayyorgarlik vositalaridan foydalanishga doir yangi dasturlarni ishlab chiqib amaliyotga joriy etishni talab etmoqda.

Respublikamizda bugungi kunda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, aholining keng qatlamlari orasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, shuningdek, mamlakatimizning xalqaro sport hamjamiyatidagi o‘rnini mustahkamlash bo‘yicha davlat siyosati darajasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan sport sohasini rivojlantirishga qaratilgan bir qator farmon va qarorlar, jumladan, sportchilar uchun zamonaviy ilmiy-kompleks laboratoriyalar tashkil etish, tayyorgarlik jarayoniga ilg‘or innovatsion texnologiyalarni joriy etish, sport sohasidagi ilmiy tadqiqotlarni yangi bosqichga olib chiqish kabi muhim vazifalar belgilab berilmoqda.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-martdagi PQ–137-sonli qarorida og‘ir atletika sport turini rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar belgilangan. Qarorda og‘ir atletika sport turini ommalashtirish, yoshlar va o‘smirlar orasida sport bilan shug‘ullanishga qiziqishni oshirish, iqtidorli sportchilarni saralab olish tizimini takomillashtirish, sport infratuzilmasini

modernizatsiya qilish hamda zamonaviy mashg'ulot bazalarini yaratish orqali xalqaro musobaqalarda yuqori natijalarga erishish ustuvor yo'nalish sifatida ko'rsatib o'tilgan.¹

Mazkur qaror ijrosini ta'minlash, yaratilayotgan imkoniyatlardan samarali foydalanish va og'ir atletika bo'yicha yuqori malakali sportchilarni tayyorlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish maqsadida mamlakatimizda keng ko'lamli ilmiy-amaliy ishlar olib borilmoqda.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga bog'liq holda amalga oshirilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekistonlik yetakchi olimlar R.M. Matkarimov, E.I. Qodirov, K.F. Bayazitov, A.Z. Xodjayeov, M.O'. Arziqulov, S.S. Abdusattarova, Sh.X. Toshturdiyev, U.B. Jarilkapov va boshqalar tomonidan og'ir atletika sohasida keng qamrovli ilmiy izlanishlar olib borilgan. Ularning tadqiqotlari og'ir atletikachilarning jismoniy tayyorgarligini oshirish, umumiy va maxsus tayyorgarlik vositalarini mashg'ulot jarayonida yosh va jins xususiyatlariga mos tarzda qo'llash, shuningdek, umumiy va maxsus jismoniy sifatlarning mashg'ulotdagi ulushini aniqlashga qaratilgan.

Shuningdek, ushbu olimlar sportchilarning takomillashuv bosqichida mashg'ulot vositalari va yuklama hajmlarini optimallashtirish, og'ir atletikachilarning ko'p yillik tayyorgarligini samarali boshqarish, yuqori malakali sportchilarni tayyorlashning ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqish borasida muhim ilmiy-amaliy tavsiyalarni ishlab chiqqanlar.²

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlar olimlaridan L.S. Dvorkin, A.V.Pakov, V.S. Avanesov, V.V. Novikov, V.L. Nijegorov, A.V. Bogoduxov, A.N.Vorovyov, L.P. Matveyev, V.N. Platonov, M.A. Godik, N.D. Graevskaya, T.I.Dolmatova, N.D. Ge, B.X. Tyutebaev, T.Y. Laslovich, A.S. Medvedov va boshqalar og'ir atletikachilar mashg'ulotlarida maksimal va submaksimal yuklamalarning kuch sifatining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tadqiq etishgan. Ko'pgina olimlar og'ir atletikachilarning jismoniy tayyorgarlik darajasi yuqori sport natijalariga erishishda muhim omil ekanligini ta'kidlaydilar. Shuningdek, ular kuch

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 20.03.2024-yildagi PQ-137-sonli "Og'ir atletika sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori

² R.M.Matkarimov Yuqori malakali og'ir atletikachilarni ko'p yillik tayyorlashning ilmiy-nazariy asoslari avtoref. ped. fan. dok. - Chirchiq. O'zDJTSU, 2022 - 69 b; K.F.Bayazitov Og'ir atletikachilarning ko'p yillik tayyorgarligini boshqarishni takomillashtirish avtoref. ped. fan. dok. - Chirchiq. O'zDJTSU, 2021 - 72 b; A.Z.Xodjayeov Malakali og'ir atletikachilarda dast ko'tarish texnikasini takomillashtirish avtoref. ped. fan. fals. dok. Chirchiq. O'zDJTSU, 2019 - 55 b; M.O'.Arziqulov Og'ir atletikachilarning sport takomillashuvi bosqichidagi mashg'ulot vositalari va yuklamalari hajmini optimallashtirish avtoref. ped. fan. fals. dok. Chirchiq. O'zDJTSU, 2019 - 55 b; S.S.Abdusattarova Og'ir atletikachilarning ortiqcha mashqlanganligini va uning oldini olish samaradorligini baholash mexanizmlarini takomillashtirish avtoref. ped. fan. fals. dok. Chirchiq. O'zDJTSU, 2024 - 52 b; Sh.X.Toshturdiyev Og'ir atletikachilarning maxsus mashqlari orqali malakali velosipedchilarni kuch sifatini oshirish uslubiyati Ped...fanlari bo'yicha fal... dok (PhD) dis.... - Chirchiq, 2022. - 146 b; U.B.Jarilkapov Malakali erkin kurashchilarning og'ir atletika vositalari orqali kuch sifatini oshirish uslubiyati avtoref. ped. fan. fals. dok. Chirchiq. O'zDJTSU, 2024 - 65 b; E.I.Qodirov Yosh og'ir atletikachilarni tayyorlash uslubiyati O'quv-uslubiy qo'llanma Toshkent 2012 -72 b.

sifatlarining rivojlanishi sportdagi dastlabki bosqichlardan boshlab amalga oshirilishi lozimligini va bunga alohida e'tibor qaratish zarurligini ta'kidlaydilar.³

Xorijlik tadqiqotchi olimlar, P.L. Greenhalf, C.B. Ocon, J.B. Kreher, J.B. Schwartz, Hu. Juanjuan, Zulkapri Izwyn va boshqalar - turli sport turlari, jumladan og'ir atletika misolida koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirish hamda jismoniy tayyorgarlikni oshirishda umumiy va maxsus tayyorgarlik vositalarini to'g'ri tanlash muhimligini ta'kidlaydilar. Ular sportchilarning mashg'ulot yuklamasining intensivligi mashg'ulotni bajarish uchun zarur vaqt bilan bevosita bog'liq ekanligini qayd etganlar. Shuning uchun umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik vositalarini to'g'ri tanlash hamda ularni mashg'ulot jarayonida oqilona qo'llash og'ir atletika mashg'ulotlarining intensivligini belgilovchi asosiy omil sifatida ko'riladi.⁴

Jadallik bilan rivojlanayotgan zamonaviy sport olamida yuqori natijalarga erishish og'ir atletikachilarning jismoniy tayyorgarlik darajasiga bevosita bog'liq. Shu bois, og'ir atletika musobaqa mashqlari sportchining jismoniy rivojlanish darajasidan yuqori talablar qo'yadi.

Umumiy va maxsus yordamchi mashqlarni to'g'ri va muvofiq tarzda qo'llash natijasida og'ir atletikachilarning jismoniy sifatleri o'zaro va boshqa omillar ta'sirida kompleks holatda rivojlanadi. Shunday ekan, mashg'ulot jarayonida ushbu mashqlarni aniq nisbatlarda va zarur darajada qo'llashga asoslangan dastur ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Buxoro davlat universitetining 2022-2025 yillarga mo'ljallangan ilmiy-tadqiqot rejasining "O'smirlar sporti va oliy malakali sportchilarni tayyorlashning psixologik-pedagogik va fiziologik-gigiyenik asoslari" mavzusiga asosan ilmiy-tadqiqot ishlari istiqbol rejasiga muvofiq bajarilgan.

³ Дворкин Л. С. Тяжелая атлетика: методика подготовки юного тяжелоатлета. Учебное пособие для вузов. – 2-е изд., испр. и доп. – Москва: Издательство Юрайт, 2019. – 335 с; Тяжелая атлетика: учеб. для ин-тов физ. культуры: доп. Ком. по физ. культуре и спорту Под общ. ред. А.Н. Воробьева – 3-е изд., перераб. и доп. М.: ФиС, 1981. 256 с; Тяжелая атлетика: учеб. для ин-тов физ. культуры. Под общ. ред. А.Н. Воробьева – 4-е изд., перераб. и доп. М.: ФиС, 1988. 238 с; Матвеев Л.П. Общая теория спорта. Учебная книга для завершающих уровней высшего физкультурного образования. М.: 4-й филиал Воениздата. 1997. 304 с; Паков А.В. Аванесов В.С., Нежегородов В.А., Новиков В.В. Оптимизация тренировочной нагрузки в тяжелой атлетике. – Т.Медицина, 1985-129 ст; Годик М.А. Контроль тренировочных и соревновательных нагрузок ФиС, 1980. - 136 с; Платонов В.Н. Спорт высших достижений и подготовка национальных команд к Олимпийским играм. Москва: Советский спорт, 2010. 310 с., Граевская Н.Д., Долматова Т.И. Спортивная медицина: учебное пособие. Курс лекций и практические занятия. – М.: Спорт, Человек, 2018. – с 712; Ге Н.Д., Тютеебаев Б.Х. Экспериментальное обоснование методики отбора специально-подготовительных упражнений тяжелоатлетов Вестник физической культуры. Алматы, 2002. – с.71-75; Т.Ю.Ласлович Тренировочные нагрузки на начальном этапе подготовки начинающих тяжелоатлетов 16-17 лет Москва – 2006 с.121; Медведев А.С. Система многолетней тренировки в тяжелой атлетике: Учебное пособие для тренеров. — М.: Физкультура и спорт, 1986, с.272.

⁴ Greenhalf, P.L., and Timmons, J.A. Pyruvate dehydrogenase activation status and acetyl group availability as a site of interchange between anaerobic and oxidative metabolism during intense exercise. In Richter, E.A.; Kiens, B.; Galbo, H; and Saltin, B. eds. Skeletal Muscle Metabolism in Exercise and Diabetes. New York: Plenum Press. 1998. 287-298., Henneman E., Ocon C.B. Relations between structure and function in the design of skeletal muscles. In: Y.Neurophysid, 28, 581-598,1965., Kreher J.B., Schwartz J.B. Overtraining syndrome: a practical guide Sports Health. 2012. № 4. P. 128–138., Tudor Bompa Periodization training for sports Tudor Bompa, Carlo Buzzichelli. Third Edition. Human Kinetics, 2014. - 358 p., Hu, Juanjuan & Zulkapri, Izwyn. (2022). Analysis of Physical Fitness Evaluation System for Weightlifters Based on Analytic Hierarchy Process. Mobile Information Systems. 2022. P-1-12.

Tadqiqotning maqsadi o'quv-mashq bosqichidagi og'ir atletikachilarning mashg'ulot jarayonida umumiy va maxsus tayyorgarlik vositalarni to'g'ri qo'llashga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning vazifalari:

Og'ir atletikachilarning sport natijalariga muhim darajada ta'sir qiluvchi tayyorgarlik vositalari hamda metodlarni qo'llash metodikasini takomillashtirish;

O'quv-mashq bosqichidagi og'ir atletikachilarning to'rt yillik reja soatlari nisbatlarini umumiy jismoniy tayyorgarlik, maxsus jismoniy tayyorgarlik, texnik-taktik tayyorgarlik, nazariy tayyorgarlik, psixologik tayyorgarlik, nazorat sinov mashg'ulotlari, yo'riqchi va hakamlilik amaliyoti, tiklanish tadbirlari o'zgartirish va har bir tayyorgarlik turlari uchun mashg'ulotdagi amaliy vazifalarini takomillashtirish;

Haftalik mashg'ulotlarning dasturiga tezkor tiklanuvchi vositalarni kiritish metodikasini ishlab chiqish;

Og'ir atletikachilarning ko'p yillik tayyorgarlik tizimida nazariy va amaliy asos sifatida sport mahorati shakllanishining turli bosqichlarida ustuvor yo'nalishlarni belgilash uchun maxsus jismoniy tayyorgarligini oshirishga mo'ljallangan "Og'ir atletikachilarning jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish" model tarkibini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti. Olimpiya va Paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlarining o'quv-mashq bosqichida shug'ullanayotgan og'ir atletikachilarning mashg'ulot jarayoni.

Tadqiqotning predmeti. O'quv-mashq bosqichidagi og'ir atletikachilarning jismoniy tayyorgarligini takomillashtirishda umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik vositalarini qo'llash metodikasining mazmuni.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda ilmiy-uslubiy adabiyotlarni o'rganish, tahlil qilish va umumlashtirish, taqqoslash, suhbat usuli, pedagogik kuzatuv, pedagogik testlash, pedagogik tajribalar, matematik-statistika kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Og'ir atletikachilarning sport natijalariga muhim darajada ta'sir qiluvchi tayyorgarlik vosita (simulyasiya: sun'iy holatlarda mashq qilish, qiyinlashtirilgan sharoitlarda texnik mashqlar: chalqancha planka, teskari vertikal holatda qo'llarni bukib yozish, ko'rgazmali o'rgatish: video tahlil, 3D modellar, virtual real holatlar)lari hamda metod (maksimal harakat, dinamik harakat, takroriy harakat, to'liqlik davriylashtirish, chiziqli davriylashtirish) larni qo'llash hisobiga umumiy harakat sifatlarini, zarur bo'lgan ko'nikma va malakalarini shakllantirish imkoniyati kengaytirilgan;

O'quv-mashq bosqichidagi og'ir atletikachilarning to'rt yillik reja soatlari nisbatlarini umumiy jismoniy tayyorgarlik (UJT)-108/116/148/156 soat, maxsus jismoniy tayyorgarlik (MJT)-220/262/318/332 soat, texnik-taktik tayyorgarlik (TTT)-250/296/398/332 soat, nazariy tayyorgarlik (NT)-14/18/22/24 soat, psixologik tayyorgarlik (PT)-12/10/16/18 soat, nazorat sinov mashg'ulotlari (NSM) -6/6/8/12 soat, Yo'riqchi va hakamlilik amaliyoti (YHA)-8/8/8/12 soat, Tiklanish tadbirlari (TT)-6/12/18/24 soatga o'zgartirish va har bir tayyorgarlik turlari uchun

mashg'ulotdagi amaliy vazifalarini takomillashtirish hisobiga sport ko'rsatkichlarini oshirish imkoniyati takomillashtirilgan;

Haftalik mashg'ulotlarning dasturiga tezkor tiklanuvchi (elliptik trenajyorlardan foydalanish, cho'zilish mashqlari 25-30 s ushlab turish, kardio mashqlari, suzish, yurish, massaj roligi (foam roller), massaj to'pi (massage ball)) vositalarni kiritish orqali ikki smenali mashg'ulotlarda o'quv-mashq bosqichidagi o'smir og'ir atletikachilar organizmida yuzaga keladigan charchoq va toliqishlarni oldini olgan holda shug'ullanishni tashkil qilish hisobiga organizmni og'ir yuklamalarga tezkor moslashtirish imkoniyati oshirilgan;

Og'ir atletikachilarning ko'p yillik tayyorgarlik tizimida nazariy va amaliy asos sifatida sport mahorati shakllanishining o'quv-mashq bosqichida ustuvor yo'nalishlarini belgilash uchun maxsus jismoniy tayyorgarligini oshirishga mo'ljallangan "Og'ir atletikachilarning jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish" model tarkibiga giperekstenziya (20-30 kg 6/4), trasteri. (50-60% 2+2/4-5), grifga maxsus rezinada osilgan disklarni ko'krakdan siqib ko'tarish (30%3/2, 35%3, 40%2/3), maxsus qo'ygichdan dast ko'tarish (50%/3, 60%3/2, 70%2/3, 80%2/2), kabi mashqlar guruhini kiritish hisobiga musobaqa tayyorgarligini takomillashtirish imkoniyatlari kengaytirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat: Olimpiya va Paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazida tahsil olayotgan og'ir atletikachilar uchun mo'ljallangan, umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirishga qaratilgan model takomillashtirilib, amaliyotga tadbiiq etildi. O'quv-mashq bosqichidagi og'ir atletikachilarning mashg'ulot jarayonida pedagogik tahlil o'tkazilib, umumiy va maxsus tayyorgarlik mashqlarini yangi uslubda rejalashtirish va qo'llash orqali markazda tahsil olayotgan o'smir og'ir atletikachilarning jismoniy tayyorgarlik darajasi sezilarli darajada oshirildi.

Jismoniy tayyorgarlik darajasining yaxshilanishi to'g'ridan-to'g'ri musobaqa natijalariga ijobiy ta'sir ko'rsatib, markaz tarbiyalanuvchilari orasidan o'smirlar terma jamoasi tarkibiga kirish imkoniyati yaratildi. Shuningdek, og'ir atletikachilarning mashg'ulot jarayonida maxsus jismoniy tayyorgarlikni oshirishga oid takomillashtirilgan dastur ishlab chiqilib, mashg'ulot samaradorligini oshirish hisobiga sportchilarning musobaqa mashqi, dast ko'tarish va siltab ko'tarish ko'rsatkichlari yaxshilandi.

Olimpiya va Paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi og'ir atletikachilarining umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligi bo'yicha dastur ishlab chiqildi hamda og'ir atletikachilarning jismoniy tayyorgarlik holatini baholash me'yorlari ilmiy va amaliy jihatdan asoslandi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Olib borilgan tadqiqot natijalarining ishonchliligi mazkur muammo bo'yicha mamlakatimiz va xorijiy davlatlar olimlari, og'ir atletika bo'yicha faoliyat yuritib kelayotgan mutaxassislar va jismoniy tarbiya va sport sohasidagi yetakchi olimlarning ilmiy-uslubiy qarashlari, mashg'ulotlar jarayonida yangi takomillashtirilgan model va dasturlarning qo'llanilganligi, o'rganilayotgan manbalarning, tajriba ishlarining haqqoniyligi hamda olingan natijalarning matematik-tahlil qilish usullari yordamida qayta ishlab chiqilganligi, natijalarning vakolatli idoralar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot jarayonida erishilgan natijalar Olimpiya va Paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazidagi o'smir og'ir atletikchilarning jismoniy tayyorgarligini takomillashtirishga xizmat qiladi. Maxsus jismoniy tayyorgarlikni oshirishga qaratilgan dastur takomillashtirilgan, mashg'ulot samaradorligini oshirishga imkon yaratildi. O'smir atletlarning mashg'ulot jarayonida umumiy jismoniy tayyorgarlik vositalarini to'g'ri tanlash va qo'llash orqali ularning jismoniy tayyorgarlik darajasining samaradorligi sezilarli darajada oshirildi.

Og'ir atletikchilarning jismoniy tayyorgarligini oshirish bo'yicha mashg'ulot tuzilishi va mazmunini ilmiy-pedagogik tahlil qilgan holda mashg'ulotlarni yangicha rejalashtirish jismoniy sifatlarning o'sishiga olib keldi. Shuningdek, og'ir atletikchilarning psixologik tayyorgarligini oshirishga qaratilgan musobaqa oldi dasturi ishlab chiqilishi musobaqa faoliyatining yaxshilanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, Olimpiya va Paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazining o'quv-mashq bosqichidagi og'ir atletikchilar uchun mo'ljallangan dasturlarini takomillashtirish, o'smir og'ir atletikchilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik tuzilmasini aniqlash, jismoniy tayyorgarlikni oshirishga qaratilgan mashg'ulotlarni samarali tashkil etish, shuningdek, murabbiylarning mashg'ulot samaradorligini oshirishda keng qo'llanishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'quv-mashq bosqichidagi og'ir atletikchilar jismoniy tayyorgarligini oshirishda umumiy va maxsus tayyorgarlik vositalaridan foydalanish metodikasini takomillashtirishning ilmiy-nazariy asoslari bo'yicha pedagogik tajribalar davomida olingan natijalar asosida: Og'ir atletikchilarning sport natijalariga muhim darajada ta'sir qiluvchi tayyorgarlik vosita (simulyasiya: sun'iy holatlarda mashq qilish, qiyinlashtirilgan sharoitlarda texnik mashqlar: chalqancha planka, teskari vertikal holatda qo'llarni bukib yozish, ko'rgazmali o'rgatish: video tahlil, 3D modellar, virtual real holatlar)lari hamda metod (maksimal harakat, dinamik harakat, takroriy harakat, to'liqinli davriylashtirish, chiziqli davriylashtirish) larni qo'llash bo'yicha tavsiyalar Buxoro Olimpiya va Paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi og'ir atletikchilari mashg'ulotlariga tatbiq etilgan (O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligining 2025-yili 6-fevraldagi 02-16/1234-son ma'lumotnomasi). Natijada, ularning kuch sifati 10-12%, tezkor kuch sifati 9-11%, portlovchi kuch sifati 11-13%ga o'sdi.

O'quv-mashq bosqichidagi og'ir atletikchilarning to'rt yillik reja soatlari nisbatlarini umumiy jismoniy tayyorgarlik (UJT)-108/116/148/156 soat, maxsus jismoniy tayyorgarlik (MJT)-220/262/318/332 soat, texnik-taktik tayyorgarlik (TTT)-250/296/398/332 soat, nazariy tayyorgarlik (NT)-14/18/22/24 soat, psixologik tayyorgarlik (PT)-12/10/16/18 soat, nazorat sinov mashg'ulotlari (NSM) -6/6/8/12 soat, Yo'riqchi va hakamlik amaliyoti (YHA)-8/8/8/12 soat, Tiklanish tadbirlari (TT)-6/12/18/24 soatga o'zgartirish va har bir tayyorgarlik turlari uchun mashg'ulotdagi amaliy vazifalarini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar Navoiy olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazida

shugʻullanuvchilarning mashgʻulotlariga tatbiq etilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Sport vazirligining 2025-yili 6-fevraldagi 02-16/1234-son maʼlumotnomasi). Natijada, ogʻir atletikachilarning kuch sifati 9-11%, tezkor kuch sifati 12-14%, portlovchi kuch sifati 8-10%ga oʻsdi. Haftalik mashgʻulotlarning dasturiga tezkor tiklanuvchi (elliptik trenajyorlardan foydalanish, choʻzilish mashqlari 25-30 s ushlab turish, kardio mashqlari, suzish, yurish, massaj roligi (foam roller), massaj toʻpi (massage ball)) vositalarni kiritish orqali ikki smenali mashgʻulotlarda oʻquv-mashq bosqichidagi oʻsmir ogʻir atletikachilar organizmida yuzaga keladigan charchoq va toliqishlarni oldini olgan holda shugʻullanishni tashkil qilishga oid taklif-tavsiyalar Samarqand olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazida shugʻullanuvchilar oʻquv-mashq bosqichidagi ogʻir atletikachilarning mashgʻulotlariga tatbiq etilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Sport vazirligining 2025-yili 6-fevraldagi 02-16/1234-son maʼlumotnomasi). Natijada, kuch sifati 9-11%, tezkor kuch sifati 12-14%, portlovchi kuch sifati 8-10%ga oʻsdi.

Ogʻir atletikachilarning koʻp yillik tayyorgarlik tizimida nazariy va amaliy asos sifatida sport mahorati shakllanishining oʻquv-mashq bosqichida ustuvor yoʻnalishlarini belgilash uchun maxsus jismoniy tayyorgarligini oshirishga moʻljallangan “Ogʻir atletikachilarning jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish” model tarkibiga giperekstenziya (20-30 kg 6/4), trasteri. (50-60% 2+2/4-5), grifga maxsus rezinada osilgan disklarni koʻkrakdan siqib koʻtarish (30%3/2, 35%3, 40%2/3), maxsus qoʻygichdan dast koʻtarish (50%3, 60%3/2, 70%2/3, 80%2/2), kabi mashqlar guruhini kiritish ga oid taklif-tavsiyalar Buxoro Olimpiya va Paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi ogʻir atletikachilari mashgʻulotlariga tatbiq etilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Sport vazirligining 2025-yili 6-fevraldagi 02-16/1234-son maʼlumotnomasi). Natijada, Tadqiqot mobaynida 6-nafar ogʻir atletikachi Oʻzbekiston ogʻir atletika oʻrmirlar terma jamoasi tarkibidan joy olgan, Oʻzbekiston chempionatida 2 nafar II oʻrin, 4 nafar III oʻrinni egallaganligi bilan tadqiqot oʻz isbotni topdi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan oʻtkazilgan.

Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi boʻyicha jami 14 ta ilmiy-uslubiy ish, shu jumladan 1 ta oʻquv qoʻllanma, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola (2 ta respublika va 4 ta xorijiy ilmiy jurnallarda) 4 ta xalqaro konferensiyalarda 3 ta respublika konferensiyalarda maqola va tezislar nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kompyuter matnida 129 sahifada bayon qilingan, kirish, toʻrtta bob, 14 ta rasm, 15 ta jadval, xulosa, amaliy tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati, ilovalardan tashkil topgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi, muammoning oʻrganilganlik darajasi, dissertatsiya

bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqotdan olingan natijalarning ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy etilishi, aprotatsiyasi, e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Og‘ir atletikachilarning jismoniy tayyorgarligini takomillashtirishning ilmiy-metodik asoslari va mavjud muammolar tahlili”** deb nomlangan birinchi bobida og‘ir atletika sport turi bilan shug‘ullanuvchilarni tayyorlash jarayonining eng muhim yo‘nalishlari og‘ir atletikachilarni mashg‘ulot jarayoni xususiyati va yo‘nalishlari bo‘yicha har-xil vosita va usullardan foydalanish, vositalarni tasniflash hamda mashg‘ulot jarayonida aniq atamalarni qo‘llash, umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlikning o‘zaro aloqadorligi, jismoniy sifatlarning rivojlanib borishi, og‘ir atletika sport turining o‘ziga xos xususiyatlariga muvofiq ustuvor jismoniy sifatlarni, texnik-taktik, saralashda ko‘rsatkichlar, organizmning tiklanish usullari shuningdek tayyorgarlik turlarining ahamiyati to‘g‘risidagi ma'lumotlar keltirilgan.

O‘zbekistonlik yetakchi olimlar R.M. Matkarimov, E.I. Qodirov, K.F. Bayazitov, A.Z. Xodjayev, M.O‘. Arziqulov, S.S. Abdusattarova, Sh.X. Toshturdiyev, va boshqalar tomonidan og‘ir atletika sohasida keng qamrovli ilmiy izlanishlar olib borilgan. Ularning tadqiqotlari og‘ir atletikachilarning jismoniy tayyorgarligini oshirish, umumiy va maxsus tayyorgarlik vositalarini mashg‘ulot jarayonida yosh va jins xususiyatlariga mos tarzda qo‘llash, shuningdek, umumiy va maxsus jismoniy sifatlarning mashg‘ulotdagi ulushini aniqlashga qaratilgan ishlar tahlili olib borilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlari olimlari va dan L.S. Dvorkin, A.V.Pakov, V.S. Avanesov, V.V. Novikov, V.L. Nijegorov, A.V. Bogoduxov, A.N.Vorovyov, L.P. Matveyev, V.N. Platonov, M.A. Godik, N.D. Graevskaya, T.I.Dolmatova, N.D. Ge, B.X. Tyutebaev, T.Y. Laslovich, A.S. Medvedov va boshqalar og‘ir atletikachilar mashg‘ulotlarida maksimal va submaksimal yuklamalarning kuch sifatining o‘shirishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tadqiq etishgan. Ko‘pgina olimlar og‘ir atletikachilarning jismoniy tayyorgarlik darajasi yuqori sport natijalariga erishishga qaratilgan ilmiy ishlar o‘rganib chiqilgan.

Xorijlik tadqiqotchi olimlar tomonidan og‘ir atletika misolida koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirish hamda jismoniy tayyorgarlikni oshirishda umumiy va maxsus tayyorgarlik vositalarini to‘g‘ri tanlash muhimligini ta’kidlaydilar. Ular sportchilarning mashg‘ulot yuklamasining intensivligi mashg‘ulotni bajarish uchun zarur vaqt bilan bevosita bog‘liq ekanligini qayd etganlar.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqotning vazifalari, usullari va tashkil etilishi”** deb nomlangan ikkinchi bobida o‘quv-mashq bosqichidagi og‘ir atletikachilarning jismoniy tayyorgarligi asosida istiqbolini bashoratlashga oid ilmiy-uslubiy adabiyotlarni o‘rganish, tahlil qilish va umumlashtirish, taqqoslash, suhbat usuli, pedagogik kuzatuv, pedagogik testlash, pedagogik tajribalar, matematik-statistika kabi tadqiqot usullari orqali tashkil qilish yuzasidan ma'lumotlar bayon etilgan.

Tadqiqot oldiga qo‘yilgan maqsad va vazifalarga ko‘ra quyidagi bosqichlardan iborat:

I bosqich (2022-yil): ishchi farazlar shakllantirildi, tadqiqot obyekti aniqlab olindi, ilmiy tekshirish usullari tanlandi hamda tadqiqot vazifalari belgilandi. Mavzuga oid mavjud ilmiy-uslubiy adabiyotlar batafsil o'rganilib, tahlil qilindi. Og'ir atletikachilarning jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash uchun pedagogik ko'rsatkichlar asosida ishonchli testlar tanlandi. Shuningdek, og'ir atletikachilarning mashg'ulot yuklamalarini hisobga olgan holda rejalashtirish ishlari boshlandi.

II bosqich (2023-yil): Olimpiya va Paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlarida faoliyat yuritayotgan trenerlar bilan suhbatlar o'tkazildi va natijalar tahlil qilindi. Umumiy og'ir atletikchilar yetakchi mutaxassislar tomonidan tavsiya etilgan pedagogik testlar yordamida umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik darajasi bo'yicha birlamchi baholandi. O'quv-mashq bosqichidagi og'ir atletikchilar jismoniy rivojlanish, tayyorgarlik darajasi hamda funksional ko'rsatkichlari asosida nazorat va tajriba guruhlariga ajratildi.

III bosqich (2023-2024-yil): Asosiy tajriba bosqichi o'tkazildi. O'quv-mashq bosqichidagi og'ir atletikchilarning jismoniy tayyorgarlik holatini takomillashtirish uchun ishlab chiqilgan modelni takomillashtirish zarurati aniqlandi. Tadqiqotda ishtirok etgan Buxoro Olimpiya va Paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi, Navoiy Olimpiya va Paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi, Samarqand Olimpiya va Paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazida og'ir atletikchilarning natijalari tahlil qilinib, jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirishga qaratilgan tajribaviy dastur takomillashtirildi. Ushbu dasturda og'ir atletikchilar uchun umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlikni aniqlash imkonini beruvchi mashqlar guruhi tanlab olinib, dastlabki ko'rsatkichlar qabul qilindi. Tadqiqotning yakuniy bosqichida tajribaviy natijalar umumlashtirilib, ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Tadqiqot oldiga qo'yilgan vazifalar yuqori darajada bajarilgani qayd etildi, dissertatsiyaning elektron ko'rinishi tayyorlandi va olingan natijalar amaliyotga tatbiq qilindi.

Dissertatsiyaning **“O'smir og'ir atletikachilarni jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishning uslubiy shakllari”** deb nomlangan uchinchi bobida markazlarda tahsil olayotgan og'ir atletikachilar bilan o'tkazilgan sinov testlaridan olingan natijalar keng tahlil qilingan.

Tadqiqot ishlari davomida Buxoro Olimpiya va Paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi, Navoiy Olimpiya va Paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi, Samarqand Olimpiya va Paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazida shug'ullanuvchi o'quv mashq bosqichidagi og'ir atletikachilarning jismoniy tayyorgarlik darajasini aniqlash yuzasidan o'tkazilgan tajriba natijalari quidagi jadvallarda keltirilgan.

Buxoro olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi tahsil olayotgan og'ir atletikachilarning egiluvchanlik sifatini aniqlash maqsadida o'tkazilgan oldinga egilish testida tajriba boshida nazorat guruhi natijalari o'rtacha $19,81 \pm 2,43$ santimetrni tashkil qildi va natijalar o'rtasidagi farq esa 12,2%ni ko'rsatdi, oldinga egilish nazorat testi bo'yicha tajriba guruhi natijalari o'rtacha $18,74 \pm 2,50$ santimetrni tashkil qildi, natijalar o'rtasidagi farq esa 13,3%ni ko'rsatdi, orasida o'rtacha $t=1.06$ farqni ko'rsatdi. Nazorat va tajriba guruhlaridan olingan natijalar o'rtasidagi farq statistik tomondan ahamiyatli emas $p>0,05$.


1-jadval

Buxoro viloyati Olimpiya va Paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi o'quv-mashq bosqichidagi og'ir atletikachilarning tajriba boshidagi umumiy jismoniy tayyorgarligi ko'rsatkichi (24=n)

№	Ko'rsatkichlar	NG (n-12) $\bar{X} \pm \sigma$	V%	TG (n-12) $\bar{X} \pm \sigma$	V%	t	p
1.	60m.ga yugurish (s.)	8,04±1,02	12,6	8,37±1,04	12,4	0,78	>0,05
2.	1000m.ga yugurish (s.)	265,52±38,97	14,6	286,83±39,25	13,6	1,33	>0,05
3.	3x10 m Mokkalimon yugurish (s.)	8,06±1,18	14,6	8,25±1,15	13,9	0,39	>0,05
4.	Oldinga egilish (sm.)	19,81±2,43	12,2	18,74±2,50	13,3	1,06	>0,05
5.	Baland turnikda tortilish (marta)	13,18±1,64	12,4	12,46±1,74	13,9	1,04	>0,05
6.	Yugurib kelib balandlikka sakrash (sm.)	83,67±14,47	17,2	77,19±15,53	20,1	1,05	>0,05
7.	Turgan joydan uzunlikka sakrash (sm.)	186,29±29,43	15,8	172,76±30,91	17,8	1,05	>0,05

Izoh: s – soniya, sm – santimetr, T.B. – tajriba boshi, NG – nazorat guruhi, TG – tajriba guruhi, \bar{X} – o'rtacha qiymat, σ – standart og'ish, V% – o'zgaruvchanlik koeffitsienti, t – Studentning t-kritik qiymati, p – statistik ahamiyat darajasi.

Samarqand Olimpiya va Paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi og'ir atletikachilarida maxsus musobaqa mashqi hisoblangan dast ko'tarish testi natijalariga ko'ra, nazorat sinovlarida tajriba boshida nazorat guruhida bo'lgan atletlarning natijalari o'rtacha 66,03±15,09 kg tashkil qildi, variatsiya natijalari esa 22,8% ni ko'rsatdi, musobaqaning ilk mashqida tajriba guruhi sinalluvchilarining natijalari esa 71,47±14,11 kg tashkil qildi, variatsiya natijalari 19,7 % ni ko'rsatdi, orasida o'rtacha t=1,05 farq qildi.



1-rasm SOPSTTM Tajriba boshida nazorat va tajriba guruhi og'ir atletikachilarining maxsus jismoniy tayyorgarligi dinamikasi

Yuqorida keltirib o'tilgan barcha natijalarda kamchiliklar bo'lishiga bir qator sabablar mavjudligi bilan izohlanadi. Jumladan, jismoniy rivojlanganlik holatining doimiy va sport turining xususiyatidan kelib chiqqan holatda kuzatib boriladigan aniq dastur va manbalar yetarli darajada emasligi. Mavjud umumiy va maxsus


jismoniy tayyorgarlik holatini baholash imkonini beruvchi mashqlarni bajarish ko'nikmalarni yetishmasligi kuzatildi.

2-jadval

O'quv-mashq bosqichidagi o'smir og'ir atletikachilar mashg'ulot jarayonlarini tashkil etish bo'yicha namunaviy mashg'ulotlar jadvali (ko'rsatilgan vaqt oralig'ida)

No	Dushanba	Seshanba	Chorshanba	Payshanba	Juma	Shanba	Yakshanba
Ertalabgi	08:30 11:30	08:30 11:30	08:30 11:30	08:30 11:30	08:30 11:30	08:30 11:30	Faol dam olish (tiklanish)
Kechki	14:30 17:20	14:30 17:20	14:30 17:20	Faol dam olish	14:30 17:20	Faol dam olish	


Olimpiya va Paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi og'ir atletikachilaridan tarkib topgan nazorat va tajriba guruhi sportchilaridan olingan umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik sinov testi natijalari asosida o'quv-mashq bosqichidagi og'ir atletikachilarning jismoniy tayyorgarligini oshirishga qaratilgan pedagogik model takomillashtirildi.



2-rasm. O'quv-mashq bosqichidagi og'ir atletikachilarning jismoniy tayyorgarligini takomillashtirilgan modeli.

Mashg'ulot jarayonini tashkil qilishda tadqiqot uchun taklif qilingan modelga asosan guruhli va individual, tarzda mashg'ulot ishtirokchilarining tayyorgarlik turlari orasida o'zaro bog'liqlik hosil qilgan holda bajarilishini ta'minlash lozim bo'ladi.

Modelning maqsadi, mazmuni va tayyorgarlik vositalarini jamlagan yaxlit tizim sifatida quidagilarni o'z ichiga oladi:



3-rasm. O'quv-mashq bosqichidagi og'ir atletikachilarning jismoniy tayyorgarligini takomillashtirilgan turlari

O'quv-mashq bosqichidagi og'ir atletikachilar mashg'ulotlarida umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik vositalaridan oqilona foydalanish orqali jismoniy tayyorgarlik holatini takomillashtirish maqsadida ishlab chiqilgan modelda atletlarning tayyorgarlikning ushbu bosqichlari uchun umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik, texnik-taktik tayyorgarlik, nazariy tayyorgarlik, psixologik tayyorgarlik, tiklanish tadbirlariga qaratilgan mashqlarning yillik, oylik, har bir mashg'ulotdagi ulushini ishlab chiqib og'ir atletikachilar jismoniy holati takomillashtiriladi.

3-jadval

Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlarining o'quv-mashq bosqichidagi og'ir atletikachilar uchun na'munaviy yillik soatlar taqsimoti

№	Tayyorgarlik bosqichlari	Jami soat	Jami soat	Jami soat	Jami soat
		O'MG-1	O'MG-2	O'MG-3	O'MG-4
1	Umumiy jismoniy tayyorgarlik	108	116	148	156
2	Maxsus jismoniy tayyorgarlik	220	262	318	332
3	Texnika-taktik tayyorgarlik	250	296	398	462
4	Nazariy tayyorgarlik	14	18	22	24
5	Psixologik tayyorgarlik	12	10	16	18
6	Nazorat va sinov mashg'ulotlari	6	6	8	12
7	Nazorat musobaqalari	Mashg'ulot soatlaridan tashqari			
8	Yo'riqchi va hakamlik amaliyoti	8	8	8	12
9	Musobaqalarda ishtirok etish	Sport va ommaviy tadbirlar rejasi bo'yicha			
10	Tiklanish tadbirlari	6	12	18	24
11	Tibbiy ko'rik	Mashg'ulot soatlaridan tashqari			
	Jami yillik yuklama	624	728	936	1040

4- jadval

Og'ir atletikachilarning jismoniy tayyorgarligini takomillashtirishga qaratilgan haftalik mashg'ulot dasturi.

Hafta kunlari	Mashg'ulot nomi	Dam olish vaqti	Takrorlash soni
Dushanba	Badan qizdirish mashqlari Klassik dast ko'tarish		Har bir mashqni 4 martadan 50% 3/3, 60% 3/3, 70% 2/2, 75% 1/1
	Maxsus jismoniy tayyorgarlik: 1-Shtanga bilan oldinga egilish. 2-Qo'ygichdan dast ko'tarish 3-Shtangani ko'krakka ko'tarib o'tirib turish + tepaga ishlash 4-Siltab ko'tarish kengligida osilgan holatda shtangani belgacha tortish.	30-60 son	Maxsus jismoniy tayyorgarlik: 1. 15-25 kg 5/4. 2. 50%/3, 60%3/2, 70%2/3, 80%2/2. 3. 50-60% 2+2+2/2, 70%2+2+2/3. 4.60%3/2, 70%3/2, 80%3/2, 90%3/3.
	Umumiy jismoniy tayyorgarlik: 1-Chalqancha planka. 2-Oldinga egilgan holatda gantelni tortish. 3-O'tirgan holatda gantellarni ko'tarish. 4-Baland turnikda tortilish Cho'zilish mashqlari	1-3 daq	Umumiy jismoniy tayyorgarlik: 1. 5kg/20-30s. 2. 10-16 kg 6/4, 4/4. 3. 8-14 kg 6/4, 6,3. 4. maksimal. 4 qaytarilish bilan.
Seshanba	Badan qizdirish mashqlari Klassik siltab ko'tarish		Har bir mashqni 4 martadan 50% 3/3, 60% 3/3, 70% 2/2, 80% 1/1
	Maxsus jismoniy tayyorgarlik: 1-Tik turgan holatda shtanga bilan oldinga egilish. 2-Shtanga bilan tepaga to'g'ri cho'zilish (равновая протяжка) 3-Tik turgan holatda siltab ko'tarish. 4-Traster uslubida o'tirib turish	30-60 son.	Maxsus jismoniy tayyorgarlik: 1. 15-25 kg 5/4. 2. 40% 4/5. 3. 50%3/2, 60%3/2, 70%2/2, 80%2/2 4. 50-60% 2+2/4-5.
	Umumiy jismoniy tayyorgarlik: 1-Planka. 2-Qo'shroyada qo'llarni bukib. 3-Turgan joydan balandlikka sakrash. 4-Gantellar yordamida chuqur cko'kib yurish, Yurish,	1-3 daq	Umumiy jismoniy tayyorgarlik: 1. maksimal. Daq. 2. maksimal /4. 3. maksimal /4. 4. 10 m 10-15 kg/4
Chorshanba	Badan qizdirish mashqlari Klassik dast ko'tarish		Har bir mashqni 4 martadan 50%3/2, 60%3, 70%2/2, 75%/2 80%2/2, 85%1, 90%1.
	Maxsus jismoniy tayyorgarlik: 1-Giperekstenziya (maxsus moslamaga tayangan holatda shtanga bilan oldinga egilish.) 2-Shtangani belgacha tortish 3-Ko'krakdan o'tirib turish	30-60 son.	Maxsus jismoniy tayyorgarlik: 1. 20-25 kg 4/4. 2. 70%3, 80% 3/2, 85%3, 90%3, 95%2/2, 100%2, 105%1. 3. 50%3/2, 60%3, 70%2/3,
	Umumiy jismoniy tayyorgarlik: 1-Planka. 2-Teskari yotgan holatda oyoqlarni yuqoriga ko'tarish 3-Yon tomonlarga ko'tarish. Kardio mashqlari,	1-3 daq	Umumiy jismoniy tayyorgarlik: 1. maksimal. Daq. 2. 20/4. 3. maksimal /4.

4-jadval davomi

Payshanba	<p>Faol dam olish. Elliptik trenajyoridan foydalanish, Cho‘zilish mashqlari, kardio mashqlari, Suzish, yurish, Massaj, massaj roligi (foam roller), massaj to‘pi (massage ball)), sauna, Tabiatni soglomlashtiruvchi kuchlari.</p>	30-60 son. 5-7 daq 3-5 daq	Ixtiyoriy masofaga 20-30 s ushlab turish Imkoniyat doirasida Charchamaganholda
Juma	Badan qizdirish mashqlari Shtangani ko‘krakka ko‘tarish		Har bir mashqni 4 martadan 50%3/2, 60%3, 70%3/2, 80%2/2,
	<p>Maxsus jismoniy tayyorgarlik: 1-Giperekstenziya (maxsus moslamaga tayangan holatda shtanga bilan oldinga egilish.) 2-Shtanga bilan tepaga to‘gri cho‘zilish (равновая протяжка)+o‘tirib turish 3-Osilgan holatda dast ko‘tarish. 4-Ko‘krakdan o‘tirib turish</p>	30-60 son.	Maxsus jismoniy tayyorgarlik: 1. 20-30 kg 6/4. 2. 50%2+2/2, 60% 2+2/2, 70%2+2. 3. 50%3/2, 60%3/2, 70%3/2. 4. 50%3/2, 60%3/2, 70-75%2/3.
	<p>Umumiy jismoniy tayyorgarlik: 1-Teskari vertikal holatda qo‘llarni bukib yozish. 2-Og‘irlikda qo‘shpoyada qo‘llarni bukib yozish 3-Yon tomonlarga ko‘tarish. 4-Gantellar yordamida chuqur cko‘kib yurish Cho‘zilish mashqlari</p>	1-3 daq	Umumiy jismoniy tayyorgarlik: 1. maxsimal/4. 2. 15/4. 3. 8-10-kg 10/4. 4. 10 m 10-15 kg/4
Shanba	Badan qizdirish mashqlari Qo‘ygichdan dast ko‘tarish		Har bir mashqni 4 martadan, 50%3/2, 60%3, 70%2/2, 75%/2 80%2/2,
	<p>Maxsus jismoniy tayyorgarlik: 1-Giperekstenziya (maxsus moslamaga tayangan holatda shtanga bilan oldinga egilish.) 2-Yuqori startdan shtangani belgacha tortish 3-Grifga maxsus rezinada osilgan disklarni ko‘krakdan siqib ko‘tarish 4-Qo‘ygichlardan shtangani ko‘krakka olib ma’lum muddat turish</p>	30-60 son.	Maxsus jismoniy tayyorgarlik: 1. 20-30 kg 4/4. 2. 70%3, 80% 3/2, 85%3, 90%3, 95%2/2, 100%2, 105%1. 3. 30%3/2, 35%3, 40%2/3, 4. 100% 1, 110%1, 120%1, 130%1.
	<p>Umumiy jismoniy tayyorgarlik: 1-Baland turnikda tortilish bosh orqasiga bajariladi. 2-Teskari yotgan holatda oyoqlarni yuqoriga ko‘tarish 3-O‘tirgan holatda gantellarni ko‘tarish. 4-Oldinga egilgan holatda gantelni tortish Massaj, massaj roligi (foam roller), massaj to‘pi (massage ball)), sauna.</p>	1-3 daq	Umumiy jismoniy tayyorgarlik: 1. maxsimal. 4. 2. 20/4. 3. 8-10-12-14 kg/12-10-8-6. 4. 12-14-16-kg 12/4
Yakshanba	<p>Faol dam olish. Elliptik trenajyoridan foydalanish, Cho‘zilish mashqlari, kardio mashqlari, Suzish, yurish, Massaj, massaj roligi (foam roller), massaj to‘pi (massage ball)), sauna, Tabiatni soglomlashtiruvchi kuchlari.</p>	1-3 daq 30-60 son. 5-7 daq	Ixtiyoriy masofaga 20-30 s ushlab turish Imkoniyat doirasida Charchamaganholda

Yuqoridagi jadvalda takomillashtirilgan dasturlarning maqsadini o'z ichiga olgan qisqa muddatli jismoniy, texnik va taktik, psixologik va boshqa tayyorgarlikning na'munaviy haftalik ko'rinishi taqdim qilindi.

Dissertatsiyaning **O'quv-mashq bosqichidagi og'ir atletikachilarning jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish dasturining asoslanishi va amaliyotga joriy qilinishi deb nomlangan to'rtinchi bobida** olib borilgan tadqiqot ishida tajriba va nazorat guruhlaridagi o'quv-mashq bosqichidagi og'ir atletikachilar tomonidan ko'rsatilgan sinov testi natijalari dispersiya x , standart og'ish σ , variatsiya koeffitsiyenti $V\%$, natijalar o'rtasidagi farq t – Styudent mezonini orqali aniqlandi.

Olimpiya va Paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi tahsil olayotgan o'quv-mashq bosqichidagi og'ir atletikachilarning jismoniy rivojlanganlik darajasini aniqlash uchun tajriba oldi o'tkazilgan nazorat testlari ko'rsatkichlariga ko'ra kuch, tezkor-kuch, portlovchi kuch, chaqqonlik, tezkorlik, chidamlilik va egiluvchanlik jismoniy sifatlarining rivojlanishi qiyosiy solishtirilganda, natijalar orasidagi statistik farqlar ishonchliligi $p > 0,05$ ga teng ekanligi aniqlangandi. Tajriba oxirida o'tkazilgan nazorat testlari ko'rsatkichlariga ko'ra kuch, tezkor-kuch, portlovchi kuch, chaqqonlik, tezkorlik, chidamlilik va egiluvchanlik jismoniy sifatlarining rivojlanishi qiyosiy solishtirilganda, natijalar orasidagi statistik farqlar ishonchliligi $p < 0,05$ qiymatga ahamiyatli bo'lganligi aniqlandi.


5-jadval

